

“CHOL VA DENGIZ” ASARIDA INSONNING YENGILMAS IRODASI

G'apparova Malika Bekzod qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: gapporovamalika@gmail.com

+998888012807

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20152766>

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketavermasligi, umidsizlikka tushmasligi, o'zining oldiga aniq maqsad qo'yib, shu yo'lda hamma narsadan voz kechib, to'siqlarga duch kelganda sabr ila yengib o'tishi haqida mazkur asar yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Santyago, dengiz, baliqlar, umidsizlik, sabr, ramziy obrazlar, oriyat-nomus, davr tuzumi.

Аннотация. В данной статье рассматривается то, что человек не должен сдаваться, даже потерпев поражение, не владать в отчаяние, ставить перед собой четкие цели и, отказавшись от всего лишнего, с терпением преодолевать трудности. В статье приведены размышления по данному произведению.

Ключевые слова: Сантьяго, море, рыбы, отчаяние, терпение, символические образы, обычаи, государственный строй.

Annotation. This article discusses that a person should not give up even after being defeated, should not fall into despair, should set clear goals, and by giving up everything unnecessary, patiently overcome difficulties. The article presents reflections on this work.

Keywords: Santiago, sea, fish, despair, patience, symbolic images, traditions, state system.

Kirish. Ernest Xemingueyning 1952-yilda yozilgan va 1954-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan “Chol va dengiz” qissasi jahon adabiyotining eng yorqin durdonalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar nafaqat baliqchi Santyagoning sarguzashtlari, balki inson irodasi, matonati va hayotga bo'lgan cheksiz muhabbati haqidagi falsafiy hikoyadir. Asardagi qahramonlarga ta'rif beradigan bo'lsak, Santyago ismli chol Kubadagi kichik qishloqda yashaydi. U baliqchilik bilan shug'ullanar edi. Cholning to'riga 84 kundan buyon baliq ilinmaydi. Ammo u bundan sira ham umidsizlikka tushmaydi. Asardagi keyingi bosh obraz Manolin - chol bilan birga baliq ovlagan bola. Garchi bolaning ota-onasi Santyago bilan ov qilishni ta'qiqlab qo'ysa-da, cholni omadsiz deb bilsa-da, bola cholni juda yaxshi ko'radi va o'ziga ideal ustoz deb biladi. Asardagi har bir detal, buyum ramziy obrazdir. Jumladan, dengiz bu - hayot, qayiq - umr, baliq - orzu, akulalar - dushmanlarimiz. Bu asar mazmunini aynan shu obrazlar orqali anglab yetamiz.

Asosiy qism.

Avvalo, asar yozuvchisi Ernest Xeminguey bu asar orqali nafaqat insoniyat jasoratini, balki har narsada sabr-toqatli bo'lish kerakligini uqtiradi. Urush yillaridan so'ng yozilgan ushbu asar jamiyatdagi mavjud vaziyatni ochib berishga qaratilgan asardir. Chunki ayni o'sha paytda insoniyatdan kurashuvchanlik va yuksak matonat talab qilingan. Ayni o'sha paytda davr tuzumi og'ir o'tgan bo'lsada, sabr qilib, kurashib, osongina taslim bo'lmaslikni notinch bo'lgan zamonda ham umid uzmaslikni va yaxshi kunlar kelishiga ishonib yashash kerakligini, eng muhimi qalbdagi jo'sh urib turgan orzu-umidlarni, ruhiyatni

sindirmaslikni ta'kidlaydi. Buning yaqqol misoli sifatida shuni ko'ramizki, birgina qari cholning 84 kun baliq ovlay olmagan, omadi yurishmaganidan bola uni tashlab ketgan bo'lsada u hech bir qiyinchiliklarga qaramay oldinga harakat qilishdan to'xtamaganligini, va sinovlarni yengib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Bu orqali inson qaysi yoshda bo'lmasin, umidsizlikka tushmasligi, doimo orzu-umidlari bo'lib, shu yo'lda sabr-matonati bilan harakat qilishi lozimligini anglaymiz. Chunki bu hayot yo'llarida insonning boshiga turli kulfatlar tushadi, shunda u yolg'iz o'zi kurashishiga to'g'ri keladi. Asarda ko'rganimizdek, boshida cholning yonida do'stlari, yaqinlari, hattoki unga ishonuvchan "Hech qachon tashlab ketmayman" degan bolakayning ham ketganini va cholning yolg'iz kurashganini ko'rishimiz mumkin. Bundan shu narsa anglashiladiki, inson hech qachon birovga ishonmasligi, suyanmasligi, doimo o'ziga ishona olishi kerakligini anglaymiz. Bundan tashqari, inson maqsadni katta qo'yishi va hech narsadan qo'rqmasligi kerakligini asardan bilib olamiz, chunki asar qahramoni Santyago ov qilishni boshlashdan oldin uzoq joyni tanlashi bejiz emas. O'lim yoqasida borib qolsa ham so'nggi nafasigacha kurashishni tanlaydi, osonlikcha hammasiga taslim bo'lmaydi. Bunga sabab uning ruhiyati kuchliligi. U shuni aytib o'tadiki: "Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi, jismini mayda-mayda qilib tashlay olasan, lekin uning umidlarini, ruhini, irodasini, yancha olmaysan",- deydi. Shuningdek, asarda keltirilgan ramziy obrazlar bejizga emas. Dengiz hayotdir, shu hayot yo'lida insonning orzulari bo'ladi, orzu esa baliq obrazi orqali ochib berilgan. Santyagoning bejizga keksa kishi qilib ko'rsatilgani ham bejiz emas, u dengizga otlanarkan ya'ni hayot yo'lida maqsad, orzulariga erishishiga ko'plab xavf-xatarlarga, sinovlarga duch keladi, akulalar aynan shularning timsolidir. U insonning dushmanidir bu orqali shuni tushunamizki, inson umrining qadriga yetishi, kurashuvchan bo'lishi, taslim bo'lmasligi shu yo'lda uchraydigan dushmanlarga qarshi kurashishga kuch topa olishi aks ettirilgan asarda.

Xulosa. Asar janri qissa bo'lsada, undan roman o'qiganchalik qilib xulosa yasash mumkin. Hozirgi kunda yoshlarda sabr-toqat yo'qligi va tushkunlikka tez tushish, biror maqsad qo'ysa-da, o'sha maqsadga sabr qila olmasligi, tezroq erishgisi kelib shoshqaloqlik qilib, yo'lida akulalar singari turli xil dushmanlar duch kelib qolishini ko'rishimiz mumkin. Bu asar aynan yoshlarga shuni aytmoqchi bo'ladi va inson yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketavermasligi, hayotda shunchaki yashamasligi kerakligi uqtiradi. Asar ancha yillar oldin yozilgan bo'lsada bugungi kun uchun muhim asar hisoblanadi. Asarda oriyat tushunchasi ham alohida tilga olinadi, chunki chol shuncha qiyinchilik bilan baliqni tutadi orzusiga erishadi, lekin u uyiga qaytganda, baliqning boshi va suyagi qolgani, xuddiki u ov qilib, mashaqqat chekib maqsadiga erishgani qaygayu, xonasida, kravotda yotgani qayga, baribir baliqni tutganini hech kimga endi isbotlay olmasligidan xavotir olib, chol aziyat chekadi. Bu hayotda aslida inson o'zini nimalarga qodir ekanligini isbotlashi qiyin. Lekin u qo'lidan nimalar kelishini, nimalar qila olishini biladi. Shunday ekan inson o'ziga o'zini isbotlab, katta narsalarga qodir ekanini ko'rsata olsa, undagi o'ziga bo'lgan ishonch yuksaladi. Bu esa irodani mustahkamlab, orzularni kattalashtiradi. Santyago buni uddaladi, o'zining kuchliligini o'ziga, amalda isbotladi. Shuningdek, u yengilishni oriyat deb hisobladi va bu yo'lda u mardonavor kurashdi. U har bir jonzot, qushga aytadi: "O'z hayoting uchun o'zing qattiq kurash va bu dunyoda oson bitadigan ishning o'zi yo'q",- deb ta'kidlaydi va oxirida u,- umidsizlik halokat, eng katta gunohdir",- deydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ernest Heminguy. *Chol va dengiz*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.
2. Ibrohim Haqqul. *Badiiy tafakkur asoslari*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2009.
3. Ozod Sharafiddinov. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.

